QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

1991-2021-YILLARDA NAMANGAN VILOYATIDA NODAVLAT TA’LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI O‘QUV MARKAZLARI FAOLIYATI MISOLIDA.

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.086

Nigmatova Sadoqatxon G‘ulomaxmadovna
Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti
Email:nigmatovasadoqat1@gmail.com
+998916673623

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1991–2021-yillar davomida Namangan viloyatida ta’lim tiziminida nodavlat ta’lim tizimi o‘quv markazlarining shakllanish jarayonlari tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillikning ilk yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida oliy ta’lim muassasalari kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rsatuvchi yakkatartibdagi repitetorlik faolyatlari, 2000-yillardagi bu faoliyatga ma’muriy to‘siqlar va 2017-yildan keyingi islohotlar yoritilgan. Shuningdek, Namangan viloyatining Chust, Pop, To‘raqo‘rg‘on tumanlari va Namangan shahri kesimida o‘quv markazlarining geografik tarqalishi, ixtisoslashuv yo‘nalishlarining o‘zgarishi (gumanitar fanlardan IT va xorijiy tillarga o‘tish) hamda aholi turmush darajasining ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Nodavlat ta’lim, o‘quv markazlari, Namangan viloyati, repetitorlik faoliyati, abituriyentlar tayyorlash, ta’lim xizmatlari, litsenziyalash, demografik omil, intellektual kapital.

Аннотация.В данной статье представлен историко-сравнительный анализ формирования негосударственных образовательных центров в системе образования Наманганской области в 1991–2021 годах. Исследование охватывает деятельность по индивидуальному репетиторству в рамках подготовки к вступительным экзаменам в высшие учебные заведения в период экономических трудностей первых лет независимости, административные препятствия для этой деятельности в 2000-х годах и реформы после 2017 года. Также изучается географическое распределение образовательных центров в Чустском, Попском, Туракурганском районах Наманганской области и городе Наманган, изменения в областях специализации (переход от гуманитарных наук к информационным технологиям и иностранным языкам), а также влияние уровня жизни населения на качество образования.

Ключевые слова: *негосударственное образование, учебные центры, Наманганская область, репетиторская деятельность, подготовка абитуриентов, образовательные услуги, лицензирование, демографический фактор, интеллектуальный капитал.*

Abstract. This article provides a historical and comparative analysis of the formation of non-state educational centers in the education system of Namangan region in 1991–2021. The study covers the activities of individual tutoring in preparation for entrance exams to higher education institutions during the economic difficulties of the first years of independence, administrative obstacles to this activity in the 2000s, and reforms after 2017. It also studies the geographical distribution of educational centers in the Chust, Pop, Turakurgan districts of Namangan region and the city of Namangan, changes in specialization areas (transition from humanitarian sciences to IT and foreign languages), and the impact of the population's living standards on the quality of education.

Keywords: Non-state education, training centers, Namangan region, tutoring activities, preparation of applicants, educational services, licensing, demographic factor, intellectual capital.

KIRISH. Namangan viloyati tarixan aholisining gavjumligi, mehnatkashligi va ilm olishga chanqoqligi bilan ajralib turadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham aholi zichligi bo‘yicha respublikada oldingi o‘rinlarda turgan va yoshlar qatlami ham yuqori bo‘lgan. 1991-yildan boshlab viloyatda davlat ta’lim tizimi bilan bir qatorda aholining qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi muqobil tizimga zarurat tug‘ildi. 1991-2021-yillarda Namangan viloyatida o‘quv markazlari shunchaki tadbirkorlik subyekti emas, balki “ijtimoiy ko‘tarilish” vazifasini o‘tovchi muhim omilga aylandi. Viloyat yoshlarining oliy ta’limga qamrov darajasini oshirishda aynan shu sektorning o‘rni beqiyos bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi Shuningdek, hozirgi kunda xususiy maktabda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan suhbat jarayonlari o‘tkazildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1:1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2019-yil 24dekabrdagi “Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1028-son qarori kabi me’yoriy hujjatlar ham tahlil qilindi[2:3] O‘zbekistonda nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari bir qator qonunchilik hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan,

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) nodavlat ta’lim tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilab beradi. Qonunda nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatining asosiy qoidalari, ularning huquq va majburiyatlari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari xususiy maktablarning rivojlanishiga zamin yaratdi [3:4]. Yuqoridagi sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi doirasida bugungi kunda O‘zbekistonda xususiy ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda.

Bu davr mobaynida o‘quv markazlar faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. 1991-1997-yillar - birinchi bosqich davri:

Mustaqillikning dastlabki yillarida Namangan viloyati iqtisodiy o‘tish davrining qiyinchiliklarini boshdan kechirishiga qaramasdan, ota-onalarning farzandini qo‘shimcha yakkatartibdagi pullik darslar yani repitetorlik kurslariga ehtiyoji sezildi. Dastlab, rasmiy maqomga ega bo‘lgan yagona tuzilmalar OTMlar qoshidagi “Tayyorlov kurslari” (Podkurs) shakllangan edi. Ular xo‘jalik hisobida faoliyat yuritib, tinglovchilarga asosan universitetga kirishda imtiyoz berish yoki shunday va’da qilish evaziga o‘qitgan. Biroq, 1990-yillarning o‘rtalarida test tizimining joriy etilishi bu kurslarning samarasizligini ko‘rsatib qo‘ydi va xususiy sektorga ehtiyojni oshirdi va 1994-yilda Davlat test Markazi faoliyatining boshlanishi bilan repitetorlikka aholining ehtiyoji oshdi. Abiturientlarni tayyorlashda test bilan ishlash mexanikasi shakllandi. Bu davrda “o‘quv markazi” tushunchasi hali qonunchilikda ham, amaliyotda ham to‘liq shakllanmagan edi.1992-yilgi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun xususiy ta’limga ruxsat bergan bo‘lsa-da, amalda mexanizmlar yo‘q edi. Namangan shahridagi oliy o‘quv yurtlari Namangan Davlat Universiteti, Namangan muhandislik-qurilish instituti va respublikadagi boshqa liy ta’lim muassasalariga tayyorlash maqsadida mazkur oliygoh o‘qituvchilari ham repitetorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlashadi[4:2].

Bu faoliyat asosan quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

-Hududiy xususiyat: Namangan shahridagi “Go‘zal”, “Davlatobod” dahalarida, shuningdek, markaziy ko‘chalardagi xonadonlarda “xonadon-repitetorlik faoliyati”paydo bo‘ldi.

-O‘qitish uslubi: mustaqillikdan oldin, asosan sovet davridan qolgan darsliklar asosida, og‘zaki imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rilgan bo‘lsa, endi abiturientlarni testga tayyorlash va uni ishlash uslublarini mavzular, darsliklar asosida tushuntirib o‘qitish uslubiga o‘tiladi.

2. 1998-2016-yillar - ikkinchi bosqich davri.

Bu davr Namangan viloyati nodavlat ta’lim tizimi faoliyatiga abiturientlar tayyorlash repitetorlik xizmatlaridan tashqari, kasb-hunarga, tillarni o‘rgatish va komyuter savodxonligi bo‘yicha o‘qitishga ixtisoslahsgan markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yish boshlanadi. Biroq, o‘quv markazi ochish uchun murakkab litsenziya talablari mavjudligi bois, yuridik shaxs tashkil

etmasdan ishlash tendensiyasi kuchaydi. Viloyatda mashhur “matematiklar”, “tarixchilar” va “ona tilchilar” paydo bo‘ldi. Ular rasmiy o‘quv markazi emas, balki patentsiz yoki patent asosida ishlovchi repetitor sifatida tanildi.

Namangan shahrining Sardoba, Chorsu hududlarida ijaraga olingan binolarda bir vaqtning o‘zida 50-60 nafar o‘quvchiga dars o‘tish holatlari avj oldi. Bu “markazlashmagan o‘quv markazlari” edi[5:3].

2005-2015-yillarda Namangan shahrida zamonaviy ma’nodagi ilk o‘quv markazlari paydo bo‘la boshladi. Ular asosan ikki yo‘nalishda edi:

-til kurslari: ingliz tili, rus tili, nemis tillarini o‘rgatish yani asosan abituriyentlar uchun emas, balki til o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan edi;

-buxgalteriya va kompyuter: kichik biznes rivoji bilan “1C Buxgalteriya” va kompyuter savodxonligi o‘rgatuvchi markazlar ko‘paydi.

2016-yil holatiga ko‘ra, Namangan viloyatida Xalq ta’limi boshqarmasi va DTM ro‘yxatidan o‘tgan o‘quv markazlari soni 38 tani tashkil etgan. Bu 2,5 millionlik aholi uchun juda kam ko‘rsatkich edi.

3. 2017-2021-yillar-uchinchi bosqich davri

2017-yildan boshlangan islohotlar Namangan viloyati ta’lim bozorini tubdan o‘zgartirdi. Prezidentning PQ-3276-sonli qarori sohadagi son va sifat o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

2017-2021 yillarda Namangan viloyatida o‘quv markazlari soni olti barobarga oshdi.

-2017-yil 40 ta markaz;

-2019-yil 120 ta markaz.

-2021-yil 240 dan ortiq o‘quv markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu davrda Namanganning “Ibrat farzandlari”, “Ziyo”, “Ma'rifat” kabi mahalliy va poytaxtdan kirib kelgan “Registon”, “Cambridge”, “Najot Ta’lim” filiallari o‘rtasida kuchli raqobat boshlandi[6:2].

Agar 2016-yilgacha o‘quv markazlari faqat Namangan shahri markazida joylashgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib vaziyat o‘zgardi:

-Chust tumani: Aholisi zich va savdo-sanoat rivojlangan tuman sifatida 10 dan ortiq yirik o‘quv markazlariga ega bo‘ldi;

-To‘raqo‘rg‘on va Uychi tumanlari: tuman markazlarida zamonaviy jihozlangan markazlar ochildi;

-Pop va Mingbuloq: hatto chekka hududlarda ham fan to‘garaklari o‘rnini xususiy markazlar egallay boshladi.

2019-2021 yillarda Namanganda o‘quv markazlari faoliyatida transformatsiya yani DTMdan xalqaro sertifikatlarga qiziqish va talabning ortishi yuz berdi:

-CEFR va IELTS: Oliy o‘quv yurtlariga kirishda chet tilidan sertifikatga ega bo‘lganlarga maksimal ball berish tartibi joriy qilingach (2019), Namanganda Ingliz tili bumi boshlandi. Deyarli har bir markaz IELTS tayyorlashga o‘tdi.

-IT va Dasturlash: “One Million Uzbek Coders” loyihasi doirasida va IT-Park Namangan filiali ochilishi bilan xususiy markazlarda Frontend, Backend, Grafik dizayn kurslari ochildi.

Maktab va akademik litseylarda chuqurlashtirilgan yoki ixtisoslik fanlar kesimi asosida milliy sertifikat bo‘yicha A+, A, B+ ballariga ustama joriy qilinishi natijasida ham pedagoglar orasida ham o‘quv markazlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi[7:3].

2021-yilga kelib, Namangan viloyati abituriyentlarning OTMga kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha respublikada yuqori o‘rinlarga ko‘tarildi. Bunda nodavlat ta’lim sektorining hissasi katta bo‘ldi.

Iqtisodiy tahlil:

-narx siyosati: Namanganda o‘quv kurslari narxi Toshkentga nisbatan 30-40% arzonroq bo‘lib, o‘rtacha 150-300 ming so‘mni (bir fan uchun, 2021-yil narxlarida) tashkil etdi. Bu esa qamrovning kengligini ta’minladi.

-ish o‘rinlari:sohada 2000 dan ortiq pedagoglar (asosan yoshlar va maktab o‘qituvchilari o‘rindoshlik asosida) ish bilan ta’minlandi.

Shiddatli o‘sishga qaramay, 2021-yilda quyidagi muammolar saqlanib qoldi:

-Sifat nazorati: ko‘plab yangi ochilgan markazlarda o‘qituvchilar malakasi yetarli emasligi;

-infratuzilma: markazlarning aksariyati moslashtirilgan binolarda (yerto‘lalar, sobiq do‘konlar) faoliyat yuritishi[8:3].

XULOSA

1991–2021-yillar mobaynida Namangan viloyatida nodavlat ta’lim tizimi “yashirin sektor”dan “iqtisodiyotning drayveri”ga aylandi.

Evolutsion rivojlanish: soha yakka tartibdagi repetitorlikdan → kichik kurslarga → korporativ boshqaruvga ega yirik tarmoqli o‘quv markazlariga aylandi. O‘quv markazlarining sog‘lom raqobat asosida samaradorlik bilan ishlash tizimining yaratilishi oqibatida, yoshlarining “ko‘cha ta’siri”dan uzoqlashib, ilm-fan va kasb-hunarga yo‘naltirilishida profilaktik rol o‘ynadi. Namangan viloyatida o‘quv markazlarining rivojlanishi davlat ta’lim tizimini to‘ldiruvchi, raqobatbardosh muhit yaratuvchi muhim tarixiy jarayon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. lex.uz.https://lex.uz.doc. 4664567

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Халқ сўзи. 2017 йил 18-сентябрь

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 26-maydagi PF-79-son «Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni Lex.uz.https://lex.uz.doc.

4. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi. “Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi” 2021. Statistik to‘plam.

5. Namangan viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi va Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi viloyat bo‘limining 2019-2021 yillik hisobotlari.

6. “Namangan haqiqati” gazetasi, 2018-2021 yillardagi ta’limga oid maqolalar.

7. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi. “Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi” 2021. Statistik to‘plam.

8. “Namangan haqiqati” gazetasi, 2018-2021 yillardagi ta’limga oid maqolalar.